



ISTE'MOL BOZORI


(dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar-oktyabr

Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar-oktyabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,7 foizga oshdi.


Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 10,8 foizni tashkil etdi. Yirik korxonalarining o'sish sur'atini o'tgan yilning shu davriga nisbatan 37,9 foizga ko'payishi Avtotransport vositalari savdosi,alkogolli ichimliklari va yirik shoxli qora mollarga aralash yem hashak talabning oshishi bilan izohlanadi

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Nukus shahri (30,4 foiz), Beruniy (9,9 foiz), Turtkul (9,2 foiz), Xujayli (8,8 foiz) va Amudaryo (6,8 foiz) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tumanlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 4,2 foizga oshib, 1829,8 ming so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-oktyabr oylarida 1463,7 ming so'mni tashkil qilgan edi).



O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Nukus shahri (3298,3 ming so`m) Qorauzak tumani (2645,8 ming so`m) Xujayli tumani (2486,5 ming so`m) va Taxtakupir tumanida (2408,5 ming so`m) kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 105,5 mlrd.so'mni tashkil etdi va 10,1 foizga oshdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmdagi ovqatlanish korxonalarining ulushi 3,1 foizni tashkil qildi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi


	Ming so'm	o'tgan yilning shu davriga
Qoraqalpog'iston		
Respublikasi	1829,8	104,2
Amudaryo	1201,3	101,8
Beruniy	1810,8	104,2
Qonlikul	1278,4	101,7
Qorauzak	2645,8	100,6
Kegeyli	1117,6	100,2
Qungirotd	1518,3	104,7
Muynoq	759,4	100,2
Nukus tumani	1265,7	101,6
Taxiatosh	1279,5	103,3
Taxtakupir	2408,5	100,5
Turtkul	1498,6	103,8
Xujayli	2486,5	102,0
Chimboy	1226,4	103,1
Shumanay	1522,9	101,2
Ellikqala	1225,9	99,5
Nukus shahri	3298,3	108,9

O'TGAN DAVRLARDA KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,1 foizga o'sdi.

Umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 82,9 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining deyarli 211,6 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 6,2 foizni tashkil etdi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: D.Qalnazarov

(0371) 230-82-06